

Tantanali taqdirlash tadbiri

Jismonan va aqliy kuch bir butun. Ular bir- biridan quvvat oladi. Shunday ekan, har ikkalasiga yaqinlik mukammallik belgisi, boshqacha aytganda, barkamol avlodning, uchinchi renessansning poydevori ham aslida shunda. Shuning uchun inson hayotiy faoliyatida ham jismonan, ham aqliy mashqlarni muntazam ravishda bajarishi kerak. Bu uning tanasi va ong-u shuurini rivojlanishiga xizmat qiladi. Sog'lom aql va teran fikr garovi, shuningdek, salomatlikning kafolati bo'lgan sportning o'rni yosh-u keksa o'rtasida katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada respublikamiz bo'ylab tizimli ishlar amalga oshirilayotgani ham rost.



Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti jamoasi har yili talabalarning qishki ta'til paytida vaqtlarini bekor o'tkazishmaydi. Sportning barcha turlari bilan musobaqalar uyushtirishni kanda qilishmaydi. Jumladan, TIQXMMIda 2021-yil 4-9 yanvar kunlari professor o'qituvchi va xodimlar o'rtasida "Yangi yilni sport bilan boshladik" shiori ostida "REKTOR KUBOGI 2021" an'anaviy sport musobaqalari SPARTAKIADASI o'tkazildi.



Bugun unga yakun yasaldi. Institutning muhtasham, keng va yorug' sport zaliga barcha jamuljam bo'lishdi. Ular o'ziga xos yo'sinda, spartakiada shukuhini anglatadigan tarzda sport libosida turnaqator bo'lib saf tortishdi. Institut tarixida bunday yo'sinda, yuqori saviyada hali sport musobaqalari tashkil etilmaganligini ko'pchilik e'tirof etishdi. Musobaqa ruhi va shukuhini anglatuvchi tantanavor musiqa yangrab turdi.



So'ngra institutimiz rektori, professor Umurzakov O'ktam Pardaevich boshchiligidagi rahbariyat o'ziga xos sport kiyimida kirib kelishdi. Rektorimiz barchani yangi yil va sport "bayrami" bilan muborakbos etdi. Ish va o'quv jarayoni salomatlik bilan, sog'lik esa sport bilan chambaras bog'liq ekanini qayd etib, muhtaram Prezidentimiz tomonidan nom berilgan joriy yil "Yoshlarni qo'llab - quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da o'quv va ish jarayonida yanada ulkan zafarlarga erishishimiz zarurligini ta'kidladilar. So'ngra g'oliblarni taqdirlash tadbiri boshlandi.



Professor-o'qituvchilarning "Rektor kubogi-2021" an'anaviy spartakiadasi bo'yicha erishilgan o'rinnar medallar hisobida aniqlandi. Sportning oltita turi bo'yicha davom etgan musobaqalar unutilmas tarzda, qizg'in ravishda kechgani quvonarlidir. Umumiy hisobda natijalar quyidagicha ko'rinish kasb etdi.



1. GM fakulteti 4 ta oltin, 4 ta kumush, 2 ta bronza medallarni qo'lga kiritib I o'rinni zabit etishdi.
2. QXM fakulteti 2 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medallarni qo'lga kiritib II o'rinni ishg'ol qilishdi.
3. Rektorat jamoasi 2 ta oltin, 2 ta kumush medallarni qo'lga kiritib III o'rinni egallahdi.
4. GTQ fakulteti 1 ta oltin, 2 ta kumush medallarni qo'lga kiritib IV o'rinning egasi bo'lishdi.
5. ERB fakulteti 1 ta oltin, 1 ta kumush, 1 ta bronza medalni qo'lga kiritib V o'rinni qo'lga kiritishdi.
6. SXTEB fakulteti 2 ta bronza medallarni qo'lga kiritib VI o'rinni fath etishdi.
7. GIM fakulteti 2 ta bronza medalni qo'lga kiritib VI o'rinni sohibi bo'lishdi.
8. QSXET fakulteti VII o'rinni egallahdi.

Ayniqsa, ayollar hamda erkaklar o'rtasida alohida o'tkazilgan "Quvnoq startlar" o'yinlari bir-biridan qiziqarli bo'lib ishtirokchilarga ham, tomoshabinlarga ham o'zgacha zavq baxsh etdi.



TIQXMMI matbuot xizmati